

кўрбошилар ўртасидаги ихтилофларни бартараф қилишга ва энг, аввало Иброҳимбек билан Хуррамбек орасидаги келишмовчиликни йўқотишга муваффақ бўлди. Бу мулоҳазалардан Иброҳимбек фақат ўз манфаати учун кураш олиб борган, шуҳратпараст бир киши эди, деган хулоса чиқармаслик керак. У Шарқий Бухородаги истиқлолчилик ҳаракатига етти йил раҳбарлик қилар экан, ўз она тупроғини босқинчи қизил аскарлардан тозалаш учун, эрк ва истиқлол учун кураш олиб борган эди[13]. Фақат, Иброҳимбекнинг сиёсий дунёқарашлари чекланган бўлиб, унинг «Бухоро амирига фуқаро» эканлигини ҳам назардан қочирмаслик лозим. Иброҳимбек кўрбоши ўз қўшини сафида қаттиқ тартиб-интизом ўрната олди ва тинч аҳолини талашда қатнашган ёки бегуноҳ мусулмонларни ўлдирган аскарлар мабодо учраб қолса, улар шафқатсиз равишда жазоланар эди. Иброҳимбек томонидан қўл остидаги кўрбошилари Абдулазиз ва Абдурахмонбойга ёзган мактублари кўп жиҳатдан аҳамиятлидир. Иброҳимбек ўз мактубида Абдурахмонбойга қуйидаги сўзларни ёзган эди: «... сиз аскарларни махсус рухсатномасиз милтиқлари билан жўнатяпсиз, бу жуда ёмон».

Демак, кўрбошилар ўз йигитларини қишлоқларга милтиқлари билан юборишса, уларга махсус рухсатнома беришган, бу ҳолдан эрк ва истиқлол курашчиларининг қимлиги яққол намоён бўлади. Туркистонда миллий-худудий чегараланиш ўтказилиб, совет Ўрта Осиё республикалари тузилгач, Шарқий Бухоронинг деярли барча қисми Тожикистон АССР ихтиёрига ўтди (фақат ҳозирги Сурхондарё вилояти таркибига кирган айрим туманлар бундан мустасно). Иброҳимбек кўрбоши Ўзбекистон ва Тожикистоннинг асосан тоғлиқ вилоятларида 1925-1926 йилларда ўз фаолиятини давом эттирди.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТ ВА МАНБАЛАР РЎЙХАТИ:

1. Иноятов Х.Ш. Народъ Средний Азии в борьбе против интервентов и внутренней контрреволюция. Москва. “Мисль”. 1984. - С. 394.
2. Иркаев М. История гаржданской войны в Таджикистане. Душанбе. 1971. -С. 437.
3. Иркаев М. Николаев Ю, Шарапов Я. Очерк остории советкого Таджикистана. 1917-1957. Сталинабад. 1957. - С. 94.
5. Материалы истории таджикского народа в советской период. Сталинадаб. 1954. - С. 137.
6. Ўзбекистон адабиёти ва санъати, № 28, 1994 й.
7. Краснознаменный Туркестанский М., 1976. - С. 126.
8. Сурхондарё вилояти давлат архиви, 122-Фонд. 1-рўйхат, 377-иш, 17-варак
9. Сурхондарё вилояти давлат архиви, 1313-Фонд, ОП.1. д 715. - С. 97.
10. Сурхондарё вилояти давлат архиви, 110-Фонд.. оп.1. д.148. л. 48-49.
11. Сурхондарё вилояти давлат архиви, 110-Фонд.. оп. 2. д. 530. л. 29.
12. Сурхондарё вилояти давлат архиви, 122-Фонд, 1-рўйхат, 378-иш, 15-варак.

SURXON VOHASI AHLINING FRONTDAGI QAHRAMONLIKLARI

Toshov Kamoliddin,
Termiz davlat universiteti Jahon
tarixi kafedrasi o'qituvchisi,
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Maqolada ikkinchi jahon urush yillarida o'zbek xalqining Buyuk G'alabaga qo'shgan hissasi, vatandoshlarimiz hayoti, jasorati va matonati hamda Surxondaryo viloyati ahlining frontdagi ko'rsatgan qahramonliklari, Vatan ozodligi uchun jon fido qilgan marhum azamat jangchilarning nomlarini e'zoz bilan tilga olish, ular bilan faxrlanish kabi jihatlar tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: front, fashizm balosi, harbiy komissariyat, xat, hayot-mamot jang, mudofaa, moddiy

ashyolar, urush, qahramonlik, do'stlikka sodiq, partizan, razvedka, mehr-oqibat, vatanparvarlik, jasorat.

Аннотация: В статье вклад узбекского народа в Великую Победу, жизнь, мужество и стойкость наших соотечественников, а также героизм жителей Сурхандарьинской области на фронте, упоминание имен погибших. В статье исследуются граждане, отдавшие свою жизнь за свободу Родины, и гордость за них.

Ключевые слова: фронт, бич фашизма, военкомат, письмо, борьба не на жизнь, а на смерть, оборона, материальные блага, война, героизм, верность дружбе, партизан, ум, доброта, патриотизм, мужество.

Abstract: In the article, the contribution of the Uzbek people to the Great Victory, the life, courage and fortitude of our compatriots, as well as the heroism of the people of Surkhandarya region at the front, the mention of the names of the deceased citizens who sacrificed their lives for the freedom of the Motherland, and the pride in them are studied in the article.

Keywords: front, scourge of fascism, military commissariat, letter, life-and-death struggle, defense, material goods, war, heroism, loyal to friendship, partisan, intelligence, kindness, patriotism, courage.

Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar asosida xalqimizning ma'naviy salohiyatini oshirish, milliy o'zlikni yuksaltirish, yurtparvarlik, insonparvarlik tamoyillariga alohida e'tibor berilmoqda. Qolaversa, o'zbek xalqi mardonavor bosib o'tgan Ikkinchi jahon urushi tarixini xolisona o'rganish dolzarb vazifa hisoblanadi.

XX asr insoniyat tarixida Ikkinchi jahon urushi eng og'ir fojiaiy iz qoldirgan tarixiy voqealardan sanaladi. Ikkinchi jahon urushida o'sha davrda mustaqil bo'lgan 73 ta davlatdan 62 tasi ishtirok etgan va bu jarayon er aholisining 80 foizini qamrab olgan. 110 million qurolli askar ishtirok etgan bu urushda taxminiy hisob-kitoblarga ko'ra, 60 million kishi qurbon bo'lgan. Shu bois ham bu urush chin ma'noda haqiqiy Jahon urushiga aylanib ketgani e'tirof etiladi.

Shu o'rinda, fashizm ustidan qozonilgan g'alabaga O'zbekiston xalqi ham munosib hissa qo'shgan. Umuman, urush boshlarida O'zbekiston aholisi jami 6,5 million kishini tashkil etgan, shundan urushda O'zbekistondan 1 million 951 minga yaqin kishi ishtirok etib, shundan 538 ming o'zbekistonlik fuqarolar xolok bo'ldilar. Urush davrida 158 ming hamyurtlarimiz bedarak ketgan bo'lsa, sovet tuzimi siyosati tufayli boshqa o'lkalarga quloq va surgun qilingan 59 mingdan ortiq yurtdoshlarimiz urushda boshqa o'lkalar hisobidan qatnashgan[1]. Ota va onalar o'z o'g'lonlarini frontga jo'natar ekanlar, ularga bosqinchilarga qarshi sharaf bilan kurashish, o'tmishda bosqinchilarga qarshi kurashlarda g'olib chiqqan qahramonlarning jangovar jasoratlaridan namuna olishni, mard, botir askar bo'lib, dushmanlar ustidan g'alaba qozonishlarini tilab qolgandilar. Urushning birinchi kunidanoq Surxon elining azamatlari qo'liga qurol olib fashizm bilan bo'ladigan qonli janglarga otlandilar. Harbiy komissariyatlarga o'zlarining frontga yuborishlarini so'rab yozilgan arizalar soni kundan-kunga orta bordi. Urushning dastlabki oylarida viloyatdan ko'ngilli bo'lib frontga ketish istagini bildirgan vatanparvarlar soni ikki ming kishidan oshib ketdi. Surxondaryolik minglab yigit va qizlar urushga otlanib qo'llariga qurol oldilar. Surxon vohasining otaxon va onaxonlari o'z farzandlarini frontga jo'nata turib, ularga jangovar topshiriqlar bera boshladi. Termiz tumani "Qizil chegara" jamoa xo'jaligida yashovchi Shomirbobo Mirzaev o'z o'g'lini askarlikka kuzata turib "O'g'lim mard bo'l, botirlik bilan kurash" degan bo'lsa, Sherobod tumani "Sotsializm" jamoa xo'jaligining G'ambur qishlog'ida yashayotgan Ochil Turdimurodovning onasi o'g'lini frontga kuzatar ekan: "O'g'lim, dushmanga omonlik berma, dushmanni bitta qoldirmay qirib, g'alaba bilan qayt va uy joyimga egalik qil", deb oq fotiha berib frontga kuzatgan edi. Nuroniy otaxonlar va mehribon onaxonlar nasihatini yuragining to'riga jo qilgan va ularning bergan har bir o'gitini muqaddas bilgan Surxonning azamat sher yigitlari dushman bilan mislsiz janglarda qahramonlik namunalarini ko'rsatdilar. Hayot-mamot janglarida Surxon vohasining 82 274 nafar vatanparvar farzandlari qo'llariga qurol olib dushmanga ayovsiz qirg'in keltirdilar. Birgina 1941-yil 22-iyundan 1942-yil 30-oktyabrgacha viloyatdan 20727 nafar kishi urushning oldingi saflariga jo'natildi [2].

O'zbekistonliklar Ikkinchi jahon urushi frontlarida ona yurtlari uchun olib borilgan ayovsiz janglarda, fashizm ustidan qozonilgan g'alabaga Surxondaryo viloyati ahlining ham munosib o'rni bor. Front liniyalarida Brest qal'asini himoya qilishda Surxon vohasining azamatlari alohida namuna ko'rsatdilar. Ular orasidan A. Sharipov, I. Qobilov, I. Begiyarovlar frontning qaysi liniyasida jang qilmasinlar har soat va har daqiqa dushmanga qiron keltirib mardlik namunasini ko'rsatdilar. Jumladan, Moskva shahrini himoya qilishda mard va jasur yigitlardan J. Nazarov alohida qahramonlik namunasini ko'rsatdi.

Ana shunday mard va jasur yigitlardan yana biri urushdan oldin Termiz shahridagi "Vostokknigtorg" bazasining ishchisi bo'lib ishlagan Prokopi Sivustinov o'z jangovar yo'lini 1941-yil avgust oyida boshladi, u topchilar rotasida dushman bilan Kavkaz tog'lari uchun olib borilgan ayovsiz jangda alohida qahramonlik ko'rsatib "Jasorati uchun" medali bilan taqdirlangan bo'lsa, Qrimni ozod qilish uchun olib borilgan hayot-mamot janglarida ko'rsatgan qahramonligi uchun esa ikkinchi marta "Jasorati uchun" medali bilan taqdirlandi. Bundan tashqari Prokopi Sivustinov Sevastopol uchun olib borilgan jangda III darajali "Shuxrat" ordeni, Vengriyani ozod qilishda olib borilgan jangda esa II darajali "Shuxrat" ordeni bilan mukofotlandi [3].

Surxondaryolik mard jangchilar Ukraina va Belorussiya, Kavkaz va Boltiqbo'yi erlarini dushmandan ozod qilishda, qamalda qolgan Leningradni himoya qilishda, Yevropa xalqlariga yordam qo'lini cho'zishda hamda fashizmni o'z uyasida tor-mor keltirishda o'zlarining muqaddas burchlarini ado etdilar. Jumladan, urushdan avval Denov tumani maorif bo'limi mudiri bo'lib ishlagan Xudayqul Allanazarov dushmanga qaqshatqich zarba berganligi sababli "Jasurligi uchun" medali bilan taqdirlandi.

1942-yil 12-iyulida Stalingrad shahrini himoya qilishda surxondaryolik S. Eshboyev, X. Jo'rayev, Q. Omonov, N. Mamatqulov, A. Jo'rayevlar alohida qahramonlik ko'rsatdi. Stalingrad mudofaasini tashkil qilishdagi hayot-mamot janglarida mardlik ko'rsatib, Vatan ozodligi uchun qurbon bo'lgan surxondaryolik X. Jo'rayev, R. Qilichov, A. Ashurov va K. Abdug'aniyevlarga o'xshash Surxon elining yuzlab navqiron yigitlari nomlari Stalingrad ozodligi uchun qurbon bo'lgan jangchilarning nomlari qatorida tarixiy-harbiy yilnomalardan o'rin olgan.

Kavkaz frontida dushmanga qarshi kurash olib borgan jangchilardan biri Safar Xudayberdiyevdir. U o'z jangovar yo'lini Kavkazdan boshlab, Berlingacha bo'lgan masofani bosib o'tdi. Frontdagi qahramonliklari uchun ko'plab orden va medallar bilan mukofatlanib, g'alabani qarshilash baxtiga muvassar bo'ldi. Xalqlar ozodligi yo'lida kurashgan Surxondaryolik yigitlardan yana biri Bobo Sharfullayevdir. U 1943-yil Estoniyaning Narva ostonalarini dushmandan tozalashda alohida qahramonlik ko'rsatdi. Urush boshlarida Surxon elining ko'plab bahodirlari jang maydonlarida mardlarcha halok bo'ldi. Frontga Boysun tumanidan ketgan Razzoq Doniyev ham tinchlik uchun jonini qurbon qilgan bahodirlardan biridir. U urushda 389-o'qchi diviziyasi tarkibidagi 1279-o'qchi polkda mo'ljallovchi sifatida jang qilgan. Bojuv aholi punkti yaqindagi 246,4 tepaligi uchun bo'lgan jangda Razzoq Doniyev o'z pulemyotidan o't ochib, piyodalarga to'sqinlik qilayotgan dushman nuqtasini yakson qildi. 389-o'qchi diviziyasi komandirining buyrug'iga binoan Razzoq Doniyev III darajali Shuhrat ordeni bilan taqdirlandi. U 1945-yilning 27-fevralida qahramonlarcha halok bo'ldi, qahramon jangchining jasadi Germaniyadagi Gubin shahridan 12 km janubdagi Neyderfel qishlog'ida dafn qilingan [4, b-49].

Fashizmga qarshi kurashda jon fido qilgan yana bir qahramon jangchi denovlik Ollomurod Nazarovdir. U frontda 194-o'qchi diviziya tarkibidagi 616-o'qchi polkida o'qchi sifatida olib borilgan jangda dushman qarorgohiga birinchi bo'lib, bostirib kirib, 12 gitlerchini er tishlatdi. Ollomurod Nazarov III darajali "Shuhrat" ordeni bilan mukofotlandi. U 1945-yilning 15-fevral kuni dushman bilan olib borilgan janglardan birida qahramonlarcha halok bo'ldi. Marhum jangchining jasadi Polshaning Usxanovsk uyezdidagi Gorntnik qishlog'ida dafn qilingan [5, b-12].

Sherobod tumanidan frontga ketgan Islom Qurbonov ham dushman bilan bo'lgan janglarda namuna ko'rsatib, 393-o'qchi diviziyasining 1277-o'qchi polki tarkibidagi tankka qarshi qurollar rotasi bo'limda komandir sifatida jang qilgan. Ardon aholi punkti bo'sag'asida bo'lgan dushman bilan olishuvda alohida mardlik ko'rsatgan Islom Qurbonovning jasadi shimoliy Osetiyadagi Ardon

qishlog'idan 500 metr shimoli-g'arbiy tomonda dafn qilingan [5, b-10].

Denovlik Omon Soliyev yovuz dushmanga qarshi 87-gvardiyachi o'qchi diviziya tarkibidagi 1378-polkda o'qchi sifatida jang qilgan. Granata irg'itib dushmanning bir pulemyot nuqtasini, avtomatdan o't ochib 8 soldatini yakson qildi, engil yarador bo'lganiga qarmay jang maydonidan ketmadi. Omon Soliyev III darajali "Shuhrat" ordeni bilan mukofotlagan. U yarador bo'lib, 1945-yil 25-yanvar kuni gospitalda vafot etgan, jasad Litviyaning Libava rayonining Kali Kestechkasidagi alohida uydin 150 metr shimoli-g'arb tomondagi o'rmon chekkasida dafn qilingan [3].

Boysunlik Qosimov Juma urushga 151-gvardiyachi o'qchi polkning birinchi o'qchi batalonida o'qchi sifatida qatnashgan. U "Jasurligi uchun" medali bilan mukofotlangan. Juma Qosimov 1944-yil 11-mart kuni dushman bilan bo'lgan shiddatli jangda mardlarcha halok bo'ldi. Vatan ozodlik yo'lida jon fido qilgan jangchining hamshahari Umar Ramazonov ham dushmanga qarshi kurashlarda mardlik namunalari ko'rsatib, dushmanning 2 ta pulemyotini, 40 dan oshiq askarini yakson qildi. U "Jasurligi uchun" medali bilan taqdirlandi. Ramazonov Umar 1944-yil 18-aprelda bo'lgan jangda qahramonlarcha halok bo'ldi, uning jasadini Rovani viloyatidagi Chervona qishlog'ida dafn qilingan [4, b-50]. Dushmanga qarshi olib borilgan janglarda ishtirok etgan sherobodlik jangchi Jovli Boymatovning qahramonliklari bugungi yoshlarga ibrat bo'larlik darajadadir. Jovli Boymatov 1943-yilning mart oyidan boshlab dushmanga qarshi jang qila boshladi. U katta jangovar yo'lni bosib o'tdi, dushmanga qarshi olib borilgan juda ko'p janglarda qatnashdi. 1945-yil 18-aprel kuni otish pozitsiyasida turgan Jovli Boymatov komandirlik qilayotgan to'p raschyoti 16 ta tank madadiga tayangan holda hammasi bo'lib dushmanning o'n ikkita tankini, ettita zambaragini, sakkizta minomyotini, o'n bitta pulemyot nuqtasini, 350 ga yaqin soldat va ofitserini yakson qildi. Ana shu jangda Jovli Boymatovning o'zi ham halok bo'ldi. Marhum qahramonning jasadini Germaniyadagi Nodersdref qishlog'idan 400 metr shimoli-sharq tomondagi Bezimyannaya tepaligida dafn qilingan. Jovli Boymatov janglarda ko'rsatgan qahramonligi uchun "Vatan urushi" ordenlari bilan mukofotlangan.

Mash'um urush yillarida dushman bilan qonli janglarda minglab surxondaryoliklar fashizmga qarshi qahramonlarcha halok bo'ldilar. Ana shular orasida O'tkir To'rayev, Jo'ra Oltiboyev, Abdulaziz Qodirov, Muhammadi Xo'jamurodov, Ziyov Xo'jamurodov, R. Qurbonov, E. To'raqulov, Sh. Allanazarov va shunga o'xshash ko'plab mardlar maydonlarning nomlarini sanab o'tish mumkin. Qonli janggohlarda jonini fido qilgan marhum jangchilarning muqaddas xotiralari bugungi avlod xotiralarida mangu yashab, yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda, yoshlarimizni otalar jasoratiga sodiq bo'lib o'sishlarida katta tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Urush yillarida surxondaryolik mard yigitlar harbiy ilm sirlarini mustahkam egallab, ofitser darajasiga ko'tarildilar. Ana shunday ofitserlardan podpolkovnik Qaysarov, Kumikov, Glazunovlar, mayor Nosirov, E. Muhammadiyev, Quvvatov, mayor Denisov va shunga o'xshash ko'plab zobitlarning nomlarini ko'rsatib o'tish mumkin [6].

Urush yillarida o'nlab surxondaryoliklar razvedkachilik bilan shug'ullandi, ana shunday qo'rqmas va dovyurak razvedkachilar orasida termizlik Normurod Mamatqulov va sherobodlik Sergiy Petrovlar bor edi. Bu dovyurak vatanparvarlar dushman ichiga kirib borib, "til" olib kelishdek og'ir vazifani sharaf bilan bajardilar. Normurod Mamatqulov urush davomida u 70 ta fashistni qo'lga tushirishga muvofaq bo'ldi. Ulardan 65 tasi oddiy soldat va 5 tasi ofitser edi [7]. O'sha jangovar yillarda Surxon elining mardona farzandlaridan ham mohir partizanlar etishib chiqdi. Ana shunday partizanlardan polk komandiri Ahmad Siddiqov va sarosiyolik partizan A. P. Sornaskiylarning nomini keltirib o'tish mumkin. Andrey Petrovich Sornaskiy batalon komandiri bo'lib, o'z bataloni bilan dushman orqa tomonidan partizanlik harakatlarini olib borib dushmanga qaqshatqich zarbalar berdi. A. P. Sornaskiy bataloni 49 kunda etti marta jangovar operatsiyalar uyushtirishga erishdi. Ular bu operatsiyalarda 82 ta fashistni o'ldirib, dushmanlarning 6 ta mashinasini qo'lga tushirdi, 160 bosh qoramol esa nemislar qo'lidan tortib olindi.

Xiyonatkor, bosqinchi, manfur dushmanni mamlakat hududidan haydab chiqarish va Yevropa tuproqlarini dushmandan ozod qilish hamda dushman uyasi bo'lgan Reyxstagni zabt qilishdek sharaflilar kurashlarda minglab surxondaryolik jangchilar faol ishtirok etdilar va alohida jasorat namunalari ko'rsatdilar. Dushmanni Berlingacha quvib borgan azamatlardan S. Saidov, K.

Ergashev, Q. Abdunazarov, B. Shoimov, T. Tursunaliyev, O. Turdimurodov va shunga o'xshash minglab g'oliblarning nomlarini keltirib o'tish mumkin. Urush yillarida surxondaryoliklardan olti nafari Sobiq Sovet Ittifoqi Qahramoni, uch nafari esa "Shuhrat" ordenining to'la nishondori bo'lgan bo'lsa, 3769 kishi esa turli xil orden va medallar bilan taqdirlandi. Surxondaryodan safarbar qilingan 50365 nafar kishining yarmidan ko'pi dushman bilan bo'lgan janglarda qahramonlarcha halok bo'ldi. Biz bugungi kunda Vatan ozodligi uchun jon fido qilgan marhum azamat jangchilarning nomlarini e'zoz bilan tilga olib, ular bilan faxrlanamiz.

O'zbekistonlik jangchilardan 1753 nafari "Moskva mudofasi uchun" medali, 2733 kishi "Stalingrad mudofasi uchun" medali bilan, 2974 nafari «Kavkaz mudofaasi uchun» medali bilan taqdirlangan bo'lsa, 1382 nafari "Leningrad mudofaasi uchun" medali bilan mukofotlangan. Jangovar harakatlarda O'zbekistondan 1706 nafar kishi «Berlinni olgani uchun», 109208 nafar harbiy «Germaniya ustidan g'alaba qozonilganligi uchun» medali bilan mukofotlandilar.

Yapon militaristlariga qarshi janglardagi jasoratlari uchun o'zbekistonliklardan 6770 nafar harbiylar mukofotlandilar. Urush yillarida jami 120 ming o'zbekistonlik jangchi orden va medallar bilan mukofotlandi. O'zbekistonliklardan 75 nafar kishi Sovet Ittifoqi qahramoni unvoniga sazovor bo'ldi. O'zbekiston jangchilaridan 82 kishi "Shuhrat" ordenining uchala darajasi bilan mukofotlandi[7].

Mustaqillik yillarida front va front orti ishlarida qatnashgan fuqarolarimiz hukumatimiz tomonidan alohida g'amxo'rlikka olindi. 1999-yil 2-martda O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining "9-mayni Xotira va qadrlash kuni, deb e'lon qilish to'g'risida"gi Farmoni e'lon qilindi. Urushda qurbon bo'lganlarni xotirlash, biz bilan hozirgi kunlarda yonma-yon yashayotgan urush faxriylari va front orti ishlarida qatnashgan yurtdoshlarimizni qadrlashdek insoniy ishlar yoshlarni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyatga egadir.

Bugungi kunda esa keksalik gashtini surayotgan urush faxriylari yoshlarimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda katta hissa qo'shib, mustaqil O'zbekistonimiz yoshlariga Vatanga muhabbat, do'stga sodiqlik, sabr-qanoat, insofu diyonat, ota-onaga hurmat, mehnatsevarlik hislarini o'z nasihat va o'gitlari orqali singdirmoqdalar hamda davlatimizning yanada ravnaq topishiga o'z hissalarini qo'shmoqdalar. O'zbekistonda istiqomat qiluvchi Ikkinchi jahon urushi va front orti qatnashchilarining soni 2023-yil 6-may holatiga ko'ra 174 nafarni tashkil qiladi.

Ularning soni viloyatlar kesimida quyidagicha:

Qoraqalpog'iston Respublikasi — 3 nafar;

Andijon viloyati — 6 nafar;

Buxoro viloyati — 7 nafar;

Jizzax viloyati — 6 nafar;

Qashqadaryo viloyati — 10 nafar;

Navoiy viloyati — 9 nafar;

Namangan viloyati — 3 nafar;

Samarqand viloyati — 10 nafar;

Sirdaryo viloyati — 3 nafar;

Surxondaryo viloyati — 8 nafar;

Toshkent viloyati — 26 nafar;

Farg'ona viloyati — 19 nafar;

Xorazm viloyati — 5 nafar;

Toshkent shahri — 55 nafar.

Respublikabo'yicha 100 va 100 yoshdan oshgan Ikkinchi jahon urushi va frontorti qatnashchilarining soni 25 nafarni tashkil qiladi.

Hozirgi kunda Ikkinchi jahon urushida qatnashgan surxondaryolik jangchilardan 8 nafari hayot bo'lib, ularning aksariyati 97 yoshdan 101 yoshgacha umr ko'rib kelayotgan piru badavlat muhtaram otaxonlarimizdir. Jumladan, Boysun tumanidan Hamroev Shohimardon 101, Qulliev Jumaqul va Qumqo'rg'on tumanidan Musaev Hayit 100, Oltinsoy tumanidan Abdurahmanov Xoliq 99 yosh, Denov tumanidan Meredov Dosek, Sherobod tumanidan Ilamanov Kenja va Sho'rchi tumanidan

Shoymardanov Oqboylar 98, Mirzarahimov Raxmonberdi 97 yoshlarida Buyuk G'alabaniy 78 yilligini eson-omon nishonlab, vatondoshlari va farzandlarni o'qri hurmatiga sazovor bo'lib turibdilar. Surxondaryo viloyati hokimligi ularning har biriga 9-may -Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan urush va mehnat faxriylariga yo'llagan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti yo'llagan tabrik va 18 million so'mdan pul mukofatlarini taqdim etdi.

Xullas, urush yillarida mashaqqatli mehnat va azob-uqubatdan boshqa narsani ko'rmagan odamlarning ko'pchiligi qayg'u-alam girdobida jon berdilar. Shunga o'xshash urush qatnashchilarning talay qismi yorug' kunlarni ko'rmadi. Biroq shuni unutmaslik kerakki, ota-bobolarimiz misli ko'rilmagan azob-uqubatlardan va talofatlar hisobiga butun insoniyat boshiga tushgan ofatni bartaraf qilishga ulkan hissa qo'shib, jahon tarixida o'chmas iz qoldirishdi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning buyuk G'alabaniy 75 yilligi hamda Xotira va qadrlash kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi // <https://uza.uz/uz/posts/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeev-ning-buyu-09-05-2020>
2. Surxondaryo viloyati davlat arxivi, 45-fond, 1-yozuv, 149-ish, 145 bet.
3. "Ilg'or Surxon uchun" gazetasining 1945-yil 21-mart soni.
4. Tursunov S. va boshqalar. Xotira-barhayot, qadr-mangu. Toshkent: Fan.2010.
5. Xotira. Surxondaryo viloyati. 2-kitob. T: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 1994. 12-bet.
6. Surxondaryo viloyat davlat arxivi. 45-fond, 1-yozuv, 137-ish, 19 betlar.
7. "Lenin bayrog'i" gazetasining 1975-yil 25-aprel soni.
8. Surxondaryo viloyati davlat arxivi, 316-fond, 1-yozuv, 29-ish, 5-bet.

CHAG'ONIYON DAVLATINING IQTISODIY ASOSLARI

Ergashev Mavlon Eshniyozovich,

Termiz davlat universiteti Jahon tarixi kafedrasida
o'qituvchisi, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

Annotatsiya: Biz yoritayotgan maqolada ilk o'rta asrlarda mavjud bo'lgan Chag'oniyan davlatchiligining iqtisodiy asoslari, uning turli asrlarda boshqa hududdagi mahalliy davlatlar bilan munosabatlari haqida bir qator tahliliy ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Chag'oniyan davlati, Chag'onxudotlar, Somoniy, Saljuqiylar, Qoraxoniylar, G'aznaviylar, Xorazmshohlar davlatlari, iqtisodiy munosabatlar, siyosiy jarayonlar.

Аннотация: В статье, которую мы освещаем, представлен ряд аналитических данных об экономических основах чаганской государственности, существовавшей в раннем средневековье, и ее отношениях с местными государствами в других регионах в разные века.

Ключевые слова: Чаганское государство, чаганхудоты, сомани, сельджуки, караханиды, газневиды, хорезмшахские государства, экономические отношения, политические процессы.

Abstract: The article we are covering presents a number of analytical data about the economic foundations of the Chaganiyan statehood, which existed in the early Middle Ages, and its relations with local states in other regions in different centuries.

Key words: Chaganiyan state, Chagankhudots, Somani, Seljuks, Karakhanids, Ghaznavids, Khorezmshah states, economic relations, political processes.

Chag'oniyan davlati O'zbekiston hududida ilk o'rta asrlarda tashkil topib, uning davlatchilikka xos xususiyatlari XVI asrlargacha o'z faoliyatini turli ijtimoiy- iqtisodiy jarayonlarda mustaqil va gohida qaram davlat sifatida faoliyat ko'rsatganligini tasdiqlaydi. Masalan V-VII asrlarda Chag'onxudotlar tomonidan mustaqil Chag'oniyan davlatiga asos solinib, Dalvarzin shahri siyosiy ma'muriy markaz